



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

“RUSTAMXON” DOSTONIDA ONOMASTIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY ROLI

Raxmiddinova Zilola Umidjon qizi
Fargʻona davlat universiteti, magistrant

Annotatsiya

Mazkur maqolada “Rustamxon” xalq dostonidagi onomastik birliklar, xususan, toponimlarning lingvokulturologik xususiyatlari tadqiq etilgan. Doston matnida uchraydigan Oqtosh, Xorazm, Xiva, Urganch, Chortut kabi geografik nomlarning etimologik, semantik hamda madaniy-maʼnaviy jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, onomastik birliklar doston tilida nafaqat nominativ vazifani, balki epik makon yaratish, tarixiy-madaniy xotirani saqlash, milliy mentalitetni ifodalash va xalqning oʻzligini aks ettirish funksiyalarini ham bajaradi. Maqola folklor lingvistikasi, onomastika va lingvokulturologiya yoʻnalishidagi ilmiy tadqiqotlar uchun muhim nazariy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit soʻzlar: onomastik birliklar, toponimlar, lingvokulturologiya, epik makon, milliy mentalitet, “Rustamxon” dostoni.

ЛИНГВИСТИКО-КУЛЬТУРНАЯ РОЛЬ ОНОМАСТИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ПОСЛАНИИ «РУСТАМХОН»

Рахмиддинова Зилола Умиджон кизи
Ферганский государственный университет, магистрантка

Аннотация

В данной статье исследуются лингвистические и культурные особенности ономастических единиц в народном эпосе «Рустамхан». Анализируются этимологические, семантические и культурно-духовные аспекты географических названий, таких как Акташ, Хорезм, Хива, Ургенч, Чортут, встречающихся в тексте эпоса. Результаты исследования показывают, что ономастические единицы в эпическом языке выполняют не только номинативную функцию, но и функции создания эпического пространства, сохранения историко-культурной памяти, выражения национального менталитета и отражения идентичности народа. Статья имеет важное теоретическое и практическое значение для научных исследований в области фольклорной лингвистики, ономатики и лингвистических и культурных исследований.

Ключевые слова: ономастические единицы, топонимы, лингвистические и культурные исследования, эпическое пространство, национальный менталитет, эпос «Рустамхан».

THE LINGUISTIC-CULTURAL ROLE OF ONOMASTIC UNITS IN THE EPISTLE OF "RUSTAMXON"

Raxmiddinova Zilola Umidjon qizi
Fergana State University, Master's Student

Abstract

This article studies the linguo-cultural characteristics of onomastic units in the folk epic "Rustamkhan". The etymological, semantic, and cultural-spiritual aspects of geographical names such as Aqtash, Khorezm, Khiva, Urgench, Chortut, which appear in the text of the epic, are analyzed. The results of the study show that onomastic units in the epic language perform not only a nominative function, but also the functions of creating an epic space, preserving historical and cultural memory, expressing national mentality, and reflecting the identity of the people. The article is of significant theoretical and practical importance for scientific research in the fields of folklore linguistics, onomastics, and linguo-cultural studies.

Keywords: onomastic units, toponyms, linguo-cultural studies, epic space, national mentality, "Rustamkhan" epic.

Bugungi globallashuv va madaniyatlararo kommunikatsiya jarayonlarining jadallashuvi jahon tilshunosligida til va madaniyat munosabatlarini antroposentrik tamoyillar asosida tadqiq etishni dolzarb masalalardan biriga aylantirdi. Zamonaviy lingvistik paradigmada til faqat kommunikativ vosita emas, balki xalqning tarixiy xotirasi, milliy tafakkuri va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim fenomen sifatida talqin qilinmoqda. Shu bois lingvokulturologiya yoʻnalishida folklor matnlari, xususan, xalq dostonlarini lingvomadaniy jihatdan oʻrganish zarurati kuchaydi. “Rustamxon” dostoni tarkibidagi

lingvomadaniy birliklarni tahlil qilish xalqning dunyoqarashi, mentaliteti, mifologik tasavvurlari hamda milliy qadriyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Zamonaviy tilshunoslikda til va madaniyat munosabatlarini o'rganuvchi lingvokulturologiya yo'nalishi muhim ilmiy paradigma sifatida shakllandi. Ushbu yo'nalishda onomastik birliklar — antroponimlar, toponimlar, gidronimlar, etnonimlar va boshqa atoqli nomlar — milliy-madaniy axborotni saqlovchi birliklar sifatida qaraladi.

Tadqiqotning maqsadi

“Rustamxon” dostonidagi onomastik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash va ularning epik makon yaratishdagi hamda milliy dunyoqarashni ifodalashdagi rolini ochib berish.

Tadqiqot vazifalari

1. Doston matnidagi asosiy onomastik birliklarni aniqlash va tasniflash;
2. Toponimlarning etimologik-semantik xususiyatlarini tahlil qilish;
3. Onomastik birliklarning lingvomadaniy funksiyalarini ochib berish;
4. Ularning milliy mentalitet va tarixiy xotira bilan bog'liqligini ko'rsatish.

Asosiy qism

O'zbek tilshunosligida o'tgan asrning 60-yillarida tadqiqot doirasining kengayishi natijasida yangi sohalar paydo bo'la boshladi. Shu davrda paydo bo'lgan va rivojlangan yo'nalishlardan biri o'zbek onomastikasi hisoblanadi. Bu **yo'nalishdagi** dastlabki tadqiqotlar T. Nafasov[6], E. Begmatov[2] tomonidan amalga oshirilgan. Bungacha bo'lgan vaqt davomida ham atoqli otlarga qiziqish kuchli bo'lgan. Ammo onomastika yo'nalishida izchil va tizimli izlanishlarni yuqorida qayd etilgan tilshunoslar amalga oshirganlar.

Toponimlar xalqning qadimiy dunyoqarashi, geografik tasavvurlari, etnik tarixi va madaniy qadriyatlari haqida muhim ma'lumot beradi. Shu sababli folklor asarlaridagi joy nomlarini lingvokulturologik nuqtai nazardan tadqiq etish xalqning tarixiy tafakkurini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbek xalq dostonlari orasida “Rustamxon” alohida o'rin tutadi. Ushbu doston xalqning qahramonlik, vatanparvarlik va adolat haqidagi qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan yirik epik asarlardan biridir. Dostonda qo'llangan onomastik birliklar voqealarning badiiy makonini shakllantirish bilan birga, xalqning tarixiy-geografik xotirasini ham aks ettiradi. Shu nuqtai nazardan, “Rustamxon” dostonidagi onomastik birliklarni lingvomadaniy jihatdan tadqiq etish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Dostondagi mavjud onomastik birliklarni, asosan, toponimlarni real va xayoliy (noreal) nomlar sifatida o'rganish mumkin. E. Begmatov va N. Uluqovlarning ***“O'zbek onomastik terminlarining izohli lug'ati”***da real va xayoliy atoqli otlar haqida shunday fikr bildirilgan: **“Moddiy olamda real mavjud emas, ammo xayolan mavjud deb hisoblanuvchi obyektlar (hayvonlar, narsa va hodisalar, shaxslar)ning atoqli otlari”** [5] noreal nom sifatida ko'rsatilgan. Xalq og'zaki ijodi namunasi hisoblangan dostonlar voqealari esa ko'pincha real voqelikka asoslanmagan bo'ladi, shuning uchun ham dostonlardagi joy nomlari ichida xayoliy joy nomlari ham mavjud bo'ladi.

Tadqiqot natijalari

Folklor asarlarida toponimlar oddiy geografik nom emas, balki xalq tafakkuri va madaniyatini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy birliklardir. “Rustamxon” dostonida ham joy nomlari epik voqealarni real tarixiy makon bilan bog'lash orqali tinglovchida ishonch hissini uyg'otadi. Doston matnida uchraydigan toponimlarning aksariyati real geografik obyektlarni bildiradi. Bu holat dostonning xalq hayoti bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Dostondagi joy nomlari haqida ham munozarali qarashlar mavjud. Pokrovskaya “Rustamxon” dostonining yuzaga kelish o'ri haqida quyidagilarni yozadi: “Biz doston yuzaga kelgan joy **sifatida** hozirgi Samarqand **viloyati hududini** hisoblash mumkin deb taxmin qilamiz. Aynan shu yerda doston keng tarqalgan. Bizning taxminimizni dostonidagi tor geografik atamalar ham tasdiqlaydi. Oqtosh – qahramon vatani, u yerda ko'p vaqtlar qahramonning otasi Sultonxon podshoh bo'lgan; Charxin ko'li – ajdaho makoni bo'lib, uning qirg'og'ida qahramon ajdaho bilan kurashadi. Bu joylar nomi mazkur joylarning geografik nomlariga to'g'ri keladi. Samarqand viloyatida Oqtosh va Charxin deb atalgan, deyarli katta bo'lmagan bir qancha shahar va qishloqlar mavjud”, — deb ta'kidlaydi [7].

M. Obidova esa ushbu fikrlarga qo'shilmaydi, chunki baxshilar turli hududlardan bo'lgani sababli ular aynan bir joy nomidan foydalanmaganliklarini qayd qiladi.

Oqtosh toponimining lingvomadaniy talqini

Dostonda markaziy makon sifatida tasvirlangan Oqtosh nomi ikki komponentdan tashkil topgan:

- **oq** — poklik, ezgulik, yorug'lik;
- **tosh** — mustahkamlik, bardoshlilik, qudrat.

O'zbek xalq tafakkurida "oq" rang ijobiy semantik maydonga ega. "Oq yo'l", "oq niyat", "oq fотиha" kabi birikmalar ham ezgulik va poklikni ifodalaydi. Shu sababli Oqtosh nomi dostonida oddiy tog' nomi emas, balki muqaddas va qahramonlik ruhi mujassam bo'lgan makon sifatida namoyon bo'ladi.

Doston voqealarida Oqtosh Rustamxonning vatani sifatida tilga olinadi. Bu esa mazkur toponimni vatan timsoliga aylantiradi.

Xorazm toponimining tarixiy-madaniy mohiyati

Xorazm dostonida qadimiy va ulug' makon sifatida tasvirlanadi. Mazkur nomning ildizlari juda qadimiy bo'lib, "Avesto"da "Hvairizem" shaklida uchraydi.

Tadqiqotchilar bu nomni "unumdor yer", "quyoshli mamlakat", "yaxshi o'tovlarga ega hudud" ma'nolari bilan izohlaydilar [4]. Dostonida Xorazm nomining qo'llanishi bir necha lingvomadaniy funksiyani bajaradi:

1. epik voqealarga tarixiy asos beradi;
2. **xalqning** geografik bilimlarini aks ettiradi;
3. qadimiy davlatchilik an'analari eslatadi;
4. milliy faxr tuyg'usini kuchaytiradi.

Xorazm nomining qo'llanishi tinglovchi ongida qadimiy sivilizatsiya va boy madaniyat haqidagi tasavvurlarni uyg'otadi.

Xiva toponimining madaniy-semantik xususiyatlari

Xiva dostonida savdo va madaniyat markazi sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur shahar qadimdan Buyuk Ipak yo'lidagi muhim nuqtalardan biri hisoblangan. Xivak yoki Xiva "kichik qishloq" ma'nosini anglatadi [8]. Bu toponim xalqning iqtisodiy va madaniy hayoti haqidagi qarashlarini aks ettiruvchi lingvomadaniy kod vazifasini bajaradi.

Chortut toponimining xalqona tabiati

Chortut dostonidagi xalqona ruhni ifodalovchi toponimlardan biridir.

Nom tarkibidagi:

- "chor" — to'rt;
- "tut" — tut daraxti

komponentlari xalqning tabiat bilan bog'liq dunyoqarashini aks ettiradi. Toponimning xalq tiliga yaqinligi dostonning og'zaki ijod mahsuli ekanligini yaqqol ko'rsatadi.

Folklor matnlarining muhim xususiyatlaridan biri real va mifologik makon uyg'unligidir. "Rustamxon" dostonida ham real geografik nomlar epik xayol mahsuli bo'lgan makonlar bilan uyg'un holda qo'llanadi.

Bu holat: voqealarning badiiy ta'sirchanligini oshiradi; tinglovchining ishonchini mustahkamlaydi; epik makonning kengligini ta'minlaydi.

"Rustamxon" dostonidagi onomastik birliklar xalqning milliy tafakkuri va tarixiy dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy vositalardir. Ular orqali xalqning tarixiy xotirasi, geografik qarashlari, madaniy qadriyatlari va ramziy tafakkuri namoyon bo'ladi. Bu jihatdan doston toponimlari "Alpomish" va "Go'ro'g'li" dostonlaridagi onomastik tizim bilan hamohanglik kasb etadi. Doston tilidagi joy nomlari oddiy nominativ birlik emas, balki xalqning ko'p asrlik madaniy tajribasini o'zida mujassamlashtirgan lingvomadaniy kod sifatida namoyon bo'ladi.

"Rustamxon" dostonidagi onomastik birliklar epik makon yaratishning asosiy vositalaridan biridir. Dostonidagi toponimlar xalqning tarixiy-geografik bilimlarini aks ettirishga xizmat qilgan. Oqtosh, Xorazm, Xiva, Urganch kabi nomlar milliy-madaniy ramz sifatida qo'llangan. Ushbu toponimlar orqali xalqning tarixiy xotirasi va milliy mentaliteti ifodalangan. **Shuning uchun ham** dostonida ishtirok etgan toponimlar lingvokulturologik tadqiqot uchun muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, "Rustamxon" dostoni onomastik tizimi o'zbek xalqining milliy o'zligini aks ettiruvchi muhim madaniy qatlamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ashurov D. "Alpomish" dostonining lingvokulturologik xususiyatlari. – Namangan: Sunrise-Pro, 2025.
2. Begmatov E.A. O'zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013.
3. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019.
4. O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati. – Toshkent, 2022.
5. Begmatov E., Uluqov N. O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati. – Namangan, 2006.
6. Nafasov T. O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1988.
7. Obidova M. "Rustam" turkumidagi dostonlar. – Toshkent: Fan, 1982.
8. Do'simov Z., Egamov X. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent, 1977.